



O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKLARINING VUJUDGA KELISHI HAMDA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

PhD Nasimov Ravshanjon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-2295-430X

ravshanjonnasimov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va inson omilini kamaytirish sharoitida soliq xavflarini oldindan aniqlash va baholash tizimi ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, «yashirin iqtisodiyot»ga qarshi kurashishda soliq to'lovchilarni xavf darajasiga ko'ra segmentatsiya qilish va soliq uzilishi (tax gap) koeffitsientini minimallashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Maqola doirasida soliq risklarini aniqlash mezonlari va ularni miqdoriy baholash modellari ko'rib chiqilgan hamda O'zbekiston soliq tizimida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: soliq xavfi, xavfni boshqarish, xavfni tahlil qilish, soliq tekshiruvlari, yashirin iqtisodiyot, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar bazasi, xavfni kamaytirish, soliq uzilishi.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ НАЛОГОВЫХ РИСКОВ В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА И ПУТИ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

PhD Насимов Равшанжон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье в контексте цифровизации налогового администрирования и снижения человеческого фактора приоритетной задачей является система предварительной идентификации и оценки налоговых рисков. В частности, актуальность темы определяется необходимостью совершенствования механизмов сегментации налогоплательщиков по уровню риска и минимизации коэффициента налогового разрыва в борьбе с «скрытой экономикой». В статье рассматриваются критерии идентификации налоговых рисков и модели их количественной оценки, а также предлагаются способы повышения эффективности управления рисками в налоговой системе Узбекистана.

Ключевые слова: налоговый риск, управление рисками, анализ рисков, налоговые проверки, скрытая экономика, искусственный интеллект, большие данные, снижение рисков, налоговый разрыв.

THE EMERGENCE OF TAX RISKS IN THE TAX SYSTEM OF UZBEKISTAN AND WAYS TO IMPROVE THEM

PhD Nasimov Ravshanjon

Tashkent State University of Economics

Abstract. In this article, in the context of digitization of tax administration and reduction of the human factor, a system of preliminary identification and assessment of tax risks is a priority task. In particular, the need to improve the mechanisms for segmenting taxpayers by risk level and minimizing the tax gap coefficient in the fight against the "hidden economy" determines the relevance of the topic. The article considers the criteria for identifying tax risks and models for their quantitative assessment, and makes proposals for improving the effectiveness of risk management in the tax system of Uzbekistan.

Keywords: tax risk, risk management, risk analysis, tax audits, hidden economy, artificial intelligence, big data, risk reduction, tax gap.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri — bu soliq nazorati jarayoniga risk-orientirlangan yondashuvni to'liq joriy etishdir. Soliq riskini baholash uslubiyati nafaqat davlatning moliyaviy yo'qotishlarini kamaytirish, balki halol soliq to'lovchilar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Chunki mazkur tizim tekshiruvlarni kamaytirib, asosiy e'tiborni soliq to'lashdan bo'yin tovlash ehtimoli yuqori bo'lgan "intizomsiz" subyektlarga qaratish imkonini beradi. Biroq, hozirgi kunda soliq risklarini aniqlashning matematik va statistik usullarini takomillashtirish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish hamda xalqaro tajribani milliy qonunchilikka moslashtirish masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu maqola aynan mana shu uslubiy bo'shliqlarni o'rganish va sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazoratini amalga oshirish masalalari iqtisodiy nazariya, moliya va soliq huquqi sohalarida keng o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq nazoratining mohiyati, shakllari va usullariga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjud.

Xorijiy olimlardan soliq nazoratini davlat moliyaviy mexanizmining ajralmas qismi sifatida talqin qilib, uning asosiy vazifasi soliq majburiyatlarining to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarida soliq nazorati soliq siyosatining samaradorligini belgilab beruvchi muhim omil sifatida baholanadi. (Musgrave va Samuelsonlar, 1989)

Shuningdek, Stiglitz (2000) samarali soliq nazorati soliqdan qochish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq nazorati va soliq to'lovchilarning xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan.

Samuelson va Nordhaus (2010). soliq nazoratining nazariy-metodologik asoslari, uning shakl va usullari, shuningdek, soliq tekshiruvlarini tashkil etish masalalari chuqur yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda soliq nazorati davlat byudjeti daromadlarini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbekistonlik olimlardan Abdurahmonov va boshqalarning ilmiy ishlarida milliy soliq tizimida soliq nazoratini takomillashtirish, soliq ma'murchiligini kuchaytirish hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarning institutsional asoslari tahlil qilingan. Ayniqsa, ular soliq nazoratini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish hamda riskka asoslangan yondashuvlarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. (Abdurahmonov va boshq., 2002).

Makoveskiy va Zareskaya (2017) kabi olimlar soliqdan qochishning eng ko'p qonuniy tarqalgan usullaridan biri bo'lgan soliqlarni optimallashtirish tushunchasiga ham ta'rif berib o'tadi, ya'ni ularning ta'biricha, "Soliqlarni optimallashtirishda soliq to'lovchining maqsadli qonuniy harakatlari, shu jumladan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha imtiyozlardan to'liq foydalanish, soliq imtiyozlari va boshqa qonuniy imtiyozlar orqali soliq majburiyatlari miqdorini kamaytirishni tushunish odatiy holdir. Boshqacha aytganda, bu soliq va jinoyat qonunchiligi normalarini buzmaganda holda, qonuniy asoslarda soliq to'lovlari minimal darajaga tushiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini tashkil etishdir" deydi

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq organlarida xavflarni boshqarish jarayoni belgilangan maqsadlarga erishishga to'sqinlik qiladigan har qanday ta'sirni samarali kamaytirishni anglatadi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari rivojlangan, iqtisodiy ong o'sgan, soliq qonunchiligi tez-tez o'zgaradigan sharoitda, tadbirkorlar safi kengaygan bir paytda soliq organlari juda ko'p xavflar bilan ishlashiga to'g'ri kelmoqda. Bunga soliq qonunchiligiga rioya etmasdan soliqqa oid jinoyatlarni amalga oshirishni yoki korxonani bankrotlikka olib borish yo'lini ham misol keltirish mumkin. Xavflarni boshqarish qaysi sohada ishlatilmasin barchasida xavflarni kamaytirishga qaratilgan harakatlar ketma-ketligi amalga oshiradi. Soliq organlarida ham o'zlarining soliq xavflarini boshqarish tizimini yaratish zaruriyati yuzaga keldi.

Soliq xavflarini boshqarishning ob'ekti soliq organlariga o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarilishiga eng to'g'ri qarorlarni qabul qilish orqali imkoniyat yaratishdir. Ushbu tizim qaror qabul qilish jarayonidagi turli-xil harakatlar ketma-ketligini aniqlashda yordam beradi hamda har bir bosqichda keyingi bosqichga o'tmasdan oldin aniq va maqsadli qarorlar ijrosini ta'minlaydi. Natijada, bosqichlarning samarali yakunlanganligini baholash imkoniyati paydo bo'ladi hamda kamchiliklarni aniqlash jarayoni osonlashadi. Bundan, tashqari soliq xavflarini boshqarish tizimi quyidagilarni amalga oshirishda yordam beradi:

barcha soliq to'lovchilarga bir xil munosabatdagi soliq ma'murchiligini yaratish;

soliq qonunchiligiga rioya etmaydigan soliq to'lovchilarda soliq nazorati tadbirlarining to'g'ri taqsimlanishiga e'tibor qaratish;

inson resurslaridan, moliyaviy va texnik vositalardan eng samarali usulda foydalanish;

ixtiyoriy soliq qonunchiligiga bo'ysunuvchi soliq to'lovchilar sonini oshirish;

soliq xavfi darajasidan kelib chiqqan holda zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

ixtiyoriy soliq qonunchiligiga bo'ysunuvchi soliq to'lovchilar soliq qonunchiligiga rioya etmaydigan soliq to'lovchilar toifasiga o'tishi mumkin bo'lgan holatlarni oldindan baholash.

Soliq xavflarini boshqarish tizimi soliq organlarining xavflar bilan ishlashdagi samaradorligini oshirish vositasi ekanligi yoritib beriladi. Shuningdek, soliq qonunchiligiga rioya etmaydigan soliq to'lovchilarga qo'llanishi mumkin bo'lgan ta'sir choralari hamda ulardan qanday hollarda foydalanish lozimligi yuzasidan takliflar bayon etiladi. Bundan, tashqari tadqiqot soliq organlarining barcha boshqaruv darajalarida byudjet va resurslardan samarali foydalangan holda qaror qabul qilishdagi nazariy asoslarni keltirib o'tadi.

Soliq organlarining ustuvor vazifasi qonunchilikka muvofiq soliqlar yig'iluvchanligini ta'minlash va shu tartibda soliq tizimini mustahkam saqlab turish sanaladi. Ayrim soliq to'lovchilar rejalashtirgan holda, e'tiborsizlik tufayli yoki ataylabdan o'zlarining soliq majburiyatlarini ta'minlashda kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Shuning uchun soliq organlari soliq qonunchiligiga bo'ysunilmagan yoki soliq to'lashdan bo'yin tovlangan holatlarda zarur strategiyalarni o'z joyida va vaqtida ishlab chiqishi lozim.

Soliq xavflarini boshqarish tizimini yaratish va uni takomillashtirib borish har qachongidan ko'ra muhimroq vazifaga aylandi. Buni quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

soliq organlari duch kelayotgan xavflarning ko'payib borayotganligi;

biznes tuzilmalarining murakkablashib ketganligi;

kriptoaktivlar kabi turli xil moliyaviy mahsulotlarning yaratilishi;

soliq to'lovchilar sonining oshib borishi;

elektron tijoratning rivojlanib borayotganligi.

Bir paytning o'zida mazkur omillar soliq organlarining ham samarali ishlashi majburiyatini yaratdi. Samarali ishni tashkillashtirishda moddiy-texnika bazasi va inson resurslarining yetarlicha ta'minlanganligi muhim rol uynaydi.

O'zbekiston Respublikasida soliq xavfini boshqarish tizimini joriy etishning dastlabki qadamlari 2005-yilda qo'yilgan. 2005-yilda "O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirish" degan mavzuda Jahon banki va O'zR Moliya vazirligi, DSQ raxbar xodimlari xalqaro konfrensiya tashkillashtirilib, tekshiruvlarni xavfga asoslangan tizim natijalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish masalasi ko'tarilgan.

O'rganish maqsadida, Latviya, Germaniya, Angliya, Kanada, Meksika davlatlarining tajribasi misol qilib keltirilgan. (Xalqaro moliya korporatsiyasi, 2005)

Xavfni boshqarishda birinchi navbatda xavfni tahlil qilish jarayoni uchun moddiy texnika bazasini modernizatsiya qilishga va tashqi manba ma'lumotlarini shakllantirishga ehtiyoj bor edi Soliq organlarining ma'lumotlar bazasini kengaytirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257-sonli Qarori bilan dastlabki qadamlar tashlandi.

Ushbu qarorda soliq organlarining funksiyalari va ulardan kelib chiqadigan tuzilma bozor iqtisodiyoti talablari mos kelmasligi, shuningdek xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari soliq organlarida joriy qilinmaganligi ta'kidlab o'tilgan. Shu sababli soliq qonunchiligi buzilishi holatlarini o'z vatida aniqlash tizimi mavjud emasligi kamchilik sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, inson resurslari salohiyatini oshirib borish bo'yicha xodimlarni sinovlardan o'tkazish, yaxshi natija ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish tizimini joriy etish yuzasidan topshiriqlar berilgan.

Soliq organlarining moddiy-texnik bazasini kuchaytirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1843-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda soliq idoralarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasini shakllantirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Shuningdek, Davlat soliq qo'mitasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalarni joriy qilish boshqarmasining asosiy funktsiya va vazifalari belgilab berildi. Soliq organlari qarorlardan belgilangan topshiriqlarni ijrosini bajarib tashqi manba ma'lumotlarini shakllantirib bo'lgandan so'ng, asosiy e'tobor Soliq qo'mitasining tahlil tizimiga qaratildi.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi PF-5490-son Farmoni qabul qilingan. Ushbu qaror bilan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqish tegishli tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan qonunbuzarlik sodir etish xavfi darajasidan kelib chiqib, tekshiruvni tashabbus qilishni nazarda tutuvchi «Xavfni tahlil etish» tizimi natijalari asosida amalga oshirilishi belgilandi.

Ushbu qaror ijrosi yuzasidan Davlat soliq qo'mitasining 2018-yil 5-oktabrdagi 3075-son qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq dasturiy mahsulot orqali soliqa oid huquqbuzarlik xavfining ballik tizimi natijalariga ko'ra soliqa oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi darajasi quyidagi uch toifaga bo'linadi:

Soliqa oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari;

Soliqa oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi o'rtacha bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari;

Soliqa oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi past bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari.

Shuningdek, mazkur qarorda xavf mezonlari sifatida quyidagilar keltirib o'tilgan:

tadbirkorlik sub'ektlarining shaxsiy kartochkalarida soliq qarzdorligi mavjudligi;

tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan soliq majburiyatlarini bajarilishida soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha taqdim etilgan soliq hisobotlariga muntazam ravishda (bir yil davomida ikki va undan ortiq marta) qayta hisob-kitoblarning amalga oshirilganligi;

tadbirkorlik sub'ektlari hisobot davri mobaynida dastlab ro'yxatga olingan yuridik manzilini bir hududdan boshqa bir hududga muntazam ravishda (ikki va undan ortiq marta) o'zgartirib borilganligi;

tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan o'zlariga tegishli bo'lmagan to'lov terminallari bilan foydalanilganligi;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan aynan bir tadbirkorlik sub'ekti faoliyatidan noroziligi haqidagi murojaatlar

Soliq organlarining ma'lumotlar bazasini yanada kengaytirish maqsadida 2020-yil 30-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan 19 ta vazirlik va idoralarga real vaqt rejimida ma'lumotlarni jo'natish majburiyati yuklandi.

Farmon bilan Soliq qo'mitasiga 2021-yil 1-aprelgacha real vaqt rejimida qo'shimcha ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydigan idoralararo apparat majmuasini foydalanishga topshirish vazifasi yuklatildi.

Bugungi kunda ishlab turgan soliq xavfini boshqarish tizimining huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son Qarori hisoblanadi. Mazkur qaror bilan quyidagilar soliq organlari tomonidan xavfni boshqarish tizimini qo'llash maqsadlari hisoblanadi:

yuqori xavfga ega bo'lgan sohalarga e'tiborni jamlash va soliq organlari tasarrufidagi mavjud resurslardan samarali foydalanilishini ta'minlash;

soliq solish sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash imkoniyatlarini oshirish;

faoliyati bo'yicha soliq xavfi past deb aniqlangan soliq to'lovchilarga (soliq agentlariga) (keyingi o'rinlarda — soliq to'lovchilar) nisbatan soliq nazoratini minimallashtirish;

soliqqa oid huquqbuzarliklarni, shuningdek, soliq tekshiruvlarini o'tkazishga tanlab olinadigan soliq to'lovchilarni inson omilisiz avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulot orqali aniqlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish;

soliq xavfi darajasidan kelib chiqib soliq to'lovchilarga nisbatan soliq tekshiruvlari shakllarini belgilash.

Soliq xavfini aniqlashda xorijiy mamlakatlarning vakolatli organlari tomonidan o'zaro axborot almashish borasida tuzilgan bitimlar doirasida taqdim etilgan ma'lumotlar, ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar, o'tkazilgan soliq tekshiruvlari materiallaridagi ma'lumotlar, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha aniqlangan ma'lumotlar, soliqqa oid huquqbuzarlik faktlari to'g'risida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, statistika organlaridan olingan ma'lumotlardan foydalishi belgilab o'tilgan.

Shuningdaek, qaror bilan soliq to'lovchilar quyidagi mezonlar asosida soliq xavfi darajasiga qarab past, o'rta va yuqori xavfli toifalarga ajratilgan.

soliq yuki;

ilgari taqdim etilgan soliq hisobotlariga bir necha bor (bir hisobot davri uchun uch va undan ortiq marta) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi;

soliq hisobotida bir necha soliq davridagi (ikki va undan ortiq) zararlar aks ettirilishi;

soliq davri davomida soliq to'lovchining joylashgan joyi bir necha bor (ikki va undan ortiq marta) o'zgartirilishi va keyinchalik qayta ro'yxatdan o'tkazilishi;

qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha guvohnomasi bekor qilingan (ro'yxatdan chiqarilib tashlangan), shuningdek, tugatilgan, faoliyatini amalga oshirmayotgan, bankrot deb topilgan shaxslar bilan amalga oshirilgan bitimlar (operatsiyalar);

sof foydaning xarajatlarga nisbati sifatida aniqlanadigan rentabellik ko'rsatkichi past darajada bo'lishi;

soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq hisobotidagi operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning, ushbu operatsiyalar bo'yicha boshqa soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotidagi ma'lumotlarga mos kelmasligi;

Soliq kodeksiga asosan maxsus soliq rejimlarini qo'llash huquqini beradigan oborotlarini bir necha yil davomida bir milliard so'mdan past miqdorda soliq hisobotlarini taqdim etishi;

o'tkazilgan soliq tekshiruvlari natijalari.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 1-yanvardagi 1-sonli Qaroriga asosan Soliq qo'mitasi tomonidan soliq xavfini boshqarish tizimi ishlab chiqilgan. Soliq xavfini boshqarish jarayoni quyidagi 4 ta bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- soliq xavfini aniqlash;
- soliq xavfini tahlil qilish;
- soliq xavfini baholash va eng salmog'i yuqorilarini aniqlash;
- soliq xavflarini bartaraf etish yuzasidan choralar ko'rish va jarayondagi kamchiliklarni tuzatish.

Soliq xavfini aniqlash xavflarni boshqarish jarayonining dastlabki bosqichi hisoblanib, ehtimoliy soliq xavflarini va ularning takrorlanish darajasini aniqlashdan iborat. Ushbu jarayonda potensial xavflar reestri yaratiladi. Soliq xavfini tahlil qilish bu yig'ilgan elektron axborotlarni inson bilimi va salohiyatini qo'llagan holda qayta ishlash jarayoni sanaladi. Ushbu jarayonda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- ma'lum vaqt oralig'ida holatlarning takrorlanishi (soliq xavflari va xavfi mavjud soliq to'lovchilar soni)
- ehtimolligi (xavfning sodir bo'lish ehtimolligi qanchalik katta)
- ta'siri (xavfning sodir bo'lishi qanday oqibatlariga olib keladi)

Biroq, nima sodir bo'lganligi, kim tomonidan sodir etilganligini aniqlashning o'zi yetarli emas. Soliq xavfini aniqlash jarayoni nima uchun sodir bo'ldi degan savolga javob qidiradi. Bunda, soliq to'lovchining shunday xulq-atvorda o'zini namoyon qilishiga sabab bo'lgan omillar o'rganiladi. Bu esa baholash jarayonini to'g'ri amalga oshirishga hamda eng samarali ta'sir choralari qo'llashga yordam beradi.

Soliq xavfini baholash va eng salmog'i yuqorilarini aniqlash jarayoni soliq xavflarini muhimlik darajasiga ko'ra matritsa asosida tabaqalarga ajratadi. Bunda soliq xavfining moliyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnik va atrof-muhitga oid ta'siri inobatga olinadi. Muhimlik darajasiga ko'ra matritsani tuzishda quyidagi ta'sir etuvchi omillar inobatga olinadi:

- xavfni bartaraf etish uchun resurslarning yetariligi: mavjud resurslar bilan bartaraf etib bo'lmaydigan xavflarga kamroq ahamiyat qaratish;
- xavfni bartaraf etish sarflanadigan xarajatlar: agar xavfni bartaraf etish uchun ko'proq xarajat sarflansa, unga kamroq e'tibor qaratish (Isaev, 2021).

Ushbu jarayonda ta'sir choralari ko'rilishi lozim deb topilgan xavflar reestri shakllantiriladi. Bunday tasniflash yengilroq ta'sir chora ko'rish mumkin xavflardan tezkor ta'sir mexanizmi qo'llanishi lozim bo'lgan xavflargacha bo'lgan darajalarni o'z ichiga oladi. Soliq xavflarini bartaraf etish yuzasidan choralar ko'rishni xavfning soliq tizimiga salbiy ta'sirini neytrallashtirish jarayoni deb aytish mumkin. Bu bir nechta yo'llar orqali amalga oshiriladi:

Xavfni ko'chirish, xavfni boshqa guruhlariga yo'naltirish orqali (misol uchun, jismoniy shaxslarning soliq to'lash majburiyatini yuridik shaxslarga yuklash);

Xavflarni kamaytirish, xavflarni takrorlanishlar davomiyligini qisqartirish orqali (misol uchun, soliq summasi kamayishga taqdim etilgan qayta hisobotlarni tekshiruvdan o'tkazib qabul qilinishi, bunday hisobotlarni tez-tez taqdim etishni kamaytiradi)

Xavfni bartaraf etish, sodir bo'lgan xavfning ta'sirini neytrallashtirish yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfning oldini olish. (Kurbanov va G'afferov, 2020)

Ta'sir choralari har doim eng kam xarajatlar bilan ko'proq naf olishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu shuni anglatadiki, dastlab xavfni ko'chirish qo'llab ko'riladi (eng kam xarajatli usul), agar bu usul naf bermasa keyin xavflarni kamaytirish usuli qo'llaniladi. Dastlabki 4 ta jarayonlar tugagandan so'ng barcha bosqichlardagi qadamlar to'g'ri amalga oshirilganligi qayta ko'rib chiqiladi. Ya'ni xavflar to'g'ri aniqlanganmi, baholashda vazn to'g'ri qo'yilganmi, aynan qo'llanilgan ta'sir chora xavfni kamaytirish imkoniyatini yaratdimi kabi savollarga javob izlanadi. Shunga ko'ra tizimni takomillashtirish ishlari izchillik bilan amalga oshirilib boriladi.

Boshqa mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham soliq xavflarini boshqarish mavzusida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. I.Davronov o'z maqolasida, "Soliq xavflarini kompleks boshqarish – tadbirkorlik subektlarida mavjud soliq xavflarini mavjud tashqi va ichki manbalar shuningdek, soliq organlarida mavjud soliq xavflarini aniqlaydigan boshqa dasturiy mahsullar

yordamida yagona soliq xavfi sifatida jamlash tizimi hisoblanadi”, deb tarif bergan. (Davronov, 2024)

J.Toshtemirov ham maqolasida “Coliq qarorlarini qabul qilish variantlarini ularning risk tarkibiy qismi bo'yicha baholash uchun tahliliy faoliyatni quyidagi bosqichlar shaklida uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etish kerak”, deb hisoblaydi. Shuningdek, u soliq riskini tahlil qilishda uning ikkita tarkibiy qismini ko'rib chiqadi: yuzaga kelish ehtimoli va zararning tabiati. U “Coliq riski paydo bo'lish ehtimoli ob'ektiv yoki sub'ektiv usul bilan aniqlanishi mumkin”, deb yozgan. (Toshtemirov, 2024).

Jumaniyozova ham soliq risklarini boshqarishni tadqiq qilgan bo'lib, uning fikricha, “Coliq risklari – bu davlat byudjetiga soliq tushumlarining kamayishiga yoki soliq to'lovchilarning majburiyatlarini to'liq bajarilmasligiga olib keladigan noaniqlik va xavflardir”. U soliq risklarini guruhlariga ajratgan bo'lib, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar, soliq me'yorlarining murakkabligi yoki noto'g'ri talqin qilinishi tufayli yuzaga keladigan xavflarni huquqiy risklar deb guruhlash maqsadga muvofiq. Moliyaviy risklar esa soliq to'lovchilar faoliyatidagi moliyaviy qiyinchiliklar sababli soliq majburiyatlarining bajarilmasligi tushunilinsa, Operatsion risklarda soliq idoralari faoliyatidagi samaradorlikning pastligi, texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi tufayli soliq yig'implarida yuzaga keladigan xavflar inobatga olinadi. Soliq to'lovchilarning soliq to'lashdan qochishi yoki soliq qonunchiligini buzish holatlari sababli soliq tushumlarining kamayishi, to'lov risklari bilan bog'liq omillar natijasida paydo bo'ladigan soliq risklarini yuzga keltiradi. (Jumaniyozova, 2024).

Evaldas va Kundeline o'z maqolalarida soliq to'lovchilarni segmentlashning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagi yo'nalishlarni keltirib o'tishgan:

- I. geografik jihatdan;
- II. demografik jihatdan;
- III. soliq to'lovchilarning xulq-avtor jihatidan.

Shuningdek, tadqiqotchilar segmentatsiyaning aniqlik darajasi soliq organlari tomonidan soliq xavfi aniqlangan guruhga nisbatan o'ziga xos kuzatuv usullari, nazorat choralari va mexanizmlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi deb baholashgan. (Stankevicius, Kristina va Kundeliene, 2017).

Dunkan, Krandall va Masters (2017) tomonidan taqdim etilgan Halqaro valyuta jamg'armasi uchun tayyorlangan hisobotida ham soliq organlari soliq qonunchiligiga rioya etish hamda xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan soliq to'lovchilarni darajalarga ajratishda segmentlashdan foydalanishi to'g'risida yozib o'tganlar.

Ular tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda yirik soliq to'lovchilarni aniqlash mezonlariga alohida ahamiyat qaratilgan bo'lib, bunday mezonlar sifatida ishchi soni, aktivlar qiymati, sho'ba korxonalari soni, to'langan soliq turlarining soni, sohasi, yillik realizatsiya summasi keltirib o'tilgan.

Ispaniyada soliq organi tomonidan Big Data texnologiyasi asosida ishlovchi “Hermes” yagona xavfni aniqlash va tahlil qilish tizimi amaliyotga joriy qilingan.

Tizim xavfning ehtimolligini 0 balldan 10 ballga baholaydi. Misol uchun, yuqori xavf 10 ball, o'rta xavf 6 ball, past xavf 0 ball bilan baholanadi.

Xavflarning muhimligi, xavfni bartaraf etsa soliq organi nimaga erishi mumkinligi bilan o'lchanadi.

Hermes avtomatlashgan tizimi xavflarning qanday yuzaga kelganligi va uni bartaraf etish yuzasidan hisobot tayyorlab beradi. Ushbu tizimdan 2018 yildan beri xavfni kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda va tekshirishlarga nomzod shakllantirishda foydalaniladi.

Italiyada amaliyotga kiritilgan APPLE – o'rganuvchi modeli soliqlardan qochuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda foydalaniladi. Tizim 2 ta APPLE business index and APPLE wealth index qismlaridan iborat.

Birinchisi soliq to'lovchining iqtisodiy faolligidan (sug'urta shartnomalari, uy-xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan uskunalarga egaligi, bank kreditlari) kelib chiqqan holda deklaratsiya

qilinmagan daromadlarni aniqlaydi. Ikkinchisi, moliyaviy investitsiyalar, hashamatli uy va mashinalarga egaligidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqilgan daromadlarni deklaratsiya qilingan daromadlar bilan taqqoslab ko'radi.

Shuningdek, Daniya tajribasida raqamli platformalardan ma'lumot olish tizimi yo'lga qo'yilgan. Jismoniy shaxslar o'rtasidasiidagi mulk va mashinalar oldi-sotdisi, ijara shartnomalari yagona Airbnb tizimi orqali amalga oshirilishi qonun bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, tizim soliq organiga ma'lumotlarni jo'natib turadi.

Litvada veb dasturlardagi ma'lumotlardan ajratib oluvchi Veb-skreypping ilovasi ishga tushirilgan bo'lib, tizim soliq to'lovchilarning nomi bilan ma'lumotlarni izlab, ularni sotuv, ijara, iqtisodiy va hokozo guruhlariga bo'lib chiqadi va xavfni baholaydi. Misol uchun sotuvchilarni aniqlagandan so'ng ular tomonidan deklaratsiya taqdim etilmagan bo'lsa, xavf yuqori sifatida baholaydi.

Niderlandiyada Soliq qonunchiligiga rioya qilish xaritasi yaratilgan bo'lib, soliq qonunchiligi, uni amaliyotda qo'llash darajasi va rioya etish darajasini o'zaro bog'laydi. Shuningdek, barcha soliq to'lovchilar soliq qonunchiligiga rioya qilganda yig'ish mumkin bo'lgan soliqlar hajmini aniqlaydi. Bu esa soliq organiga nega belgilangan maqsadlarga erisha olmayotganligini ko'rish imkoniyatini taqdim etadi.

Bunda soliq qonunchiligining qiyinlik darajasi, avtomatlashtirish darajasi, soliq to'lovchilarning xususiyatlari, soliq solishning xalqaro muammolari, soliqlarni qoplash imkoniyatlari inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Maltada Xavf koeffitsientlari va reyting dasturidan boshqa sohalarga nisbatan xavfi yuqori sohani aniqlashda va bir sohadagi boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan xavfi yuqori soliq to'lovchilarni aniqlash maqsadida foydalaniladi. Misol uchun xaridlarning sotuvga nisbati, kapital xarajatlarning sotuvga nisbati kabi koeffitsientlaridan foydalangan holda soha benchmarking ko'rsatkichlaridan farq qiluvchi anomaliyalar aniqlanadi.

Xorvatiyada QQSni qoplashni bir oyda 3 ta marta avtomatik amalga oshirishga imkoniyat yaratuvchi QQSni qoplash kompozit modeli ishlab chiqilgan.

Soliq to'lovchilar tizim orqali avtomatik xavfi mavjud bo'lmagan, past, o'rta, yuqori xavfli toifalarga ajratiladi hamda xavfi mavjud bo'lmagan soliq to'lovchilarga QQSni qoplash avtomatik amalga oshiriladi.

Xavfni boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar:

Mavjud soliq xavfini boshqarish tizimi xalqaro tajribada soliq ma'murchiligining ajralmas qismi bo'lgan ayrim amaliyotlarni nazarda tutmaydi. Bu jarayonni yanada takomillashtirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi:

soliq organi tomonidan yuqori xavfli barcha soliq turlarini va barcha segmentlarni qamrab oluvchi komplaynsni yaxshilash rejasi ishlab chiqilib tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Ushbu rejada sohalar kesimida aniqlangan xavflar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari aniq belgilab olinishi lozim. Shuningdek, ushbu ma'lumotlarni soliq organining harakatlar xaritasi sifatida soliq to'lovchilarga ham e'lon qilish mumkin. Xavfni boshqarish kengashi majburiy tartibda bo'lishi lozim va komplaynsni yaxshilash dasturlarini doimiy ravishda monitoring qilib borib kerakli paytda qarorlarni qabul qilishi kerak.

Xavfni aniqlash, baholash va kamaytirish tadbirlari aniq tizimli jarayonlar asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda xavfni boshqarish metodologiyasi ishlab chiqilib, unda har yilgi davomiy jarayonlar ketma-ketligi ko'rsatilishi kerak.

Barcha xavflarni qamrab olish bo'yicha tuzilgan jarayonlarning samaradorligi vaqti-vaqti bilan test qilib baholanib turishi lozim. Buni yilda bir marta ichki auditdan o'tkazish yoki tashqi ekspertlar fikrini olish orqali tashkillashtirish mumkin.

Inson resurslarini boshqarish strategiyasi inson resurslari bilan bog'liq xavflarni aniqlash va barataraf etish jarayonlarini ham o'z ichiga olishi lozim. Ushbu jarayonlarning amalga oshirilishi quyidagilar bilan bir paytda bo'lishi ushbu dasturlarning samaradorligini

yanada oshirishga xizmat qiladi:

yashirin iqtisodiyotni qisqartirish dasturi komplaynsni yaxshilash rejasining bir qismi ekanligi;

elektron tijoratdagi komplayns xavflarni boshqarish bo'yicha operatsional intrumentlar va huquqiy normativlarni rivojlantirish;

yashirin iqtisodiyot dasturlari va boshqa komplaynsni yaxshilash rejalarining natijalarini monitoring qilib borish maqsadida muhim samaradorlik indikatorlarini (KPI) o'rnatish; banklar va boshqa moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarga ruxsat olish orqali ro'yxatdan o'tmagan onlayn sotuvchilarni aniqlash mexanizmlarini yaratish.

Xavfni aniqlovchi dasturlar aniqligini oshirish maqsadida, dastur algoritmlari yuzasidan soliq to'lovchining fikrini bilish, asosli argumentlar taqdim etilganda o'z vaqtida algoritmlarga tegishli o'zgartirishlarni kiritish lozim.

Soliq ma'murchilgini yaxshilash doirasida, xavfni baholash tizimini yetarlicha moliyaviy ma'lumotlar bilan ta'minlash, soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash uchun soliq uzilishi tahlilini amalga oshirib borish va uni kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, reputatsion xavflarni oldini olish maqsadida soliq to'lovchilarning soliq organi haqidagi fikrlari yuzasidan so'rovlar olib borish ushbu strategiyaning bir qismi bo'lishi kerak.

Xavfni bartaraf qilish choralari tizimli va reja asosida amalga oshirilishi lozim. Choralar majmuasi xavfning xususiyati va og'irligini, shuningdek, maqsadli soliq to'lovchi aholi qatlami va ularning xulq-atvorini inobatga olgan holda moslashtiriladi.

Xavfni bartaraf etishning bir qismi sifatida turli segmentlar va ustuvor yo'nalishlar bo'yicha rioya etish natijalarini maksimallashtirish uchun moslashtirilgan hamda targ'ib etuvchi va tuzatuvchi chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan muvozanatli choralar majmuasini ta'minlaydigan Soliq qonunchiligiga rioya qilish dasturlari (CIP – Compliance Improvement Programs) ishlab chiqish lozim.

Soliq qonunchiligiga rioya qilishni yaxshilash maqsadida quyidagi uchta keng toifadagi chora-tadbirlarni qo'llash mumkin:

Targ'ib etuvchi (yoki oldini oluvchi) choralar soliq to'lovchilar (va soliq bo'yicha vositachilar)ga o'z soliq majburiyatlarini tushunish va bajarishda yordam berishni maqsad qiladi. Bu chora-tadbirlar soliq to'lovchilarning ehtiyojlariga mos ravishda moslashtirilgan, turli qulay xizmat kanallari orqali (masalan, telefon, veb-sayt, bukletlar, ma'lumot varaqalari, tushuntiruv qarorlari) yetkaziladigan faol ta'lim dasturlari va axborot mahsulotlarini o'z ichiga olishi kerak.

Tuzatuvchi choralar soliq to'lovchilar tomonidan ro'yxatdan o'tish, hisobot berish, deklaratsiya topshirish va to'lov majburiyatlari bo'yicha avvalgi rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish va kelgusidagi rioya qilmaslikka chek qo'yishga qaratilgan. Ushbu choralar quyidagilarni qamrab olishi kerak:

- a. Ro'yxatdan o'tishni tekshirish,
- b. Maslahatchi auditlar,
- c. Ma'lumotlarni taqqoslash jarayonlari,
- d. Cheklangan va to'liq qamrovli auditlar,
- e. Soliq deklaratsiyalari va qarzdorliklarni undirish bo'yicha choralar (masalan, ogohlantiruvchi xatlar, majburiy hisob-kitoblar, mol-mulkni musodara qilish, to'lov rejalar).

Bu choralar soliq to'lovchining holati va xavf darajasiga qarab qo'llanilishi kerak.

II. Qonunchilik choralari huquqiy bazani o'zgartirishga qaratilgan bo'lib, soliqqa rioya etmaslik imkoniyatlarini qisqartirish va soliq ma'muriyatiga soliq qonunchiligini samarali amalga oshirish vakolatini ta'minlashni maqsad qiladi. Choralar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

Soliq qonunchiligi va qoidalariga o'zgartirishlar kiritish,

Soliq xodimlariga qonunchilik va qoidalarni amaliyotda qo'llashda yordam beradigan amaliy ko'rsatmalar chiqarish.

Ayrim soliq to'lovchilar uchun soliqqa rioya etmaslik ehtimoli haqiqiy tushunmovchilik yoki soliq qonunlarini tushunmaslik, yoki ularga amal qila olmaslik tufayli yuzaga keladi. Bunday hollarda, soliq ma'muriyati targ'ib etuvchi choralarga va ehtimol, qonunchilikni isloh qilish hamda ma'muriy talablarni soddalashtirishga ko'proq urg'u berishi lozim.

Xulosa va takliflar.

Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda riskka asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish, raqamli soliq nazorati vositalarini rivojlantirish hamda soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish orqali soliq nazoratining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/ Lumeepamypa/References:

. Ismailov Bobir Salomovich (2024) "Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda kontragentlarni tekshirish amaliyotini takomillashtirish" I.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati T. -11 б.

Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public (1989) *Finance in Theory and Practice*. — New York: McGraw-Hill,

Samuelson P.A., Nordhaus W.D. (2010) *Economics*. — New York: McGraw-Hill Education.

Schneider F., Enste D.H. (2002) *The Shadow Economy: An International Survey*. — Cambridge: Cambridge University Press.

Stiglitz J.E. (2000) *Economics of the Public Sector*. — New York: W.W. Norton & Company.

Абдурахмонов Қ.Х. (2020) *Давлат молияси ва солиқ сиёсати*. — Тошкент: Fan va texnologiya.

Вахабов А.В. (2019) *Солиқлар ва солиққа тортиш*. — Тошкент: Иқтисод-молия.

Гончаренко Л.И. (2018) *Налоговый контрол: теория и практика*. — М.: Финансы и статистика.

Коттке К. (1998) «Грузинье» денги – что это такое? Справочник по налоговому законодательству в области «грузиньх» денег. М.

Л.И. Александрова (2017). Основные особенности и проблемы выявления уклонений от уплаты налогов. // Актуальные проблемы правового регулирования. С.2.

Майбуров И.А. (2020) *Налоги и налогообложение: учебник*. — М.: Урайт.

С.А.Маковеский, Е.А. Зарескава. (2017) *Уклонение от уплаты налогов: особенности преступления и наказания*. Вестник института экономических исследований, № 3(7) 156.

С.М.Оленников. (2017) *Квалификацсиа уклонениуа от уплаты налогов по объективным признакам состава преступлениуа*. // Юридическая ответственность и ответственные юристы.. №4. С.37-42.

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси (2020) - Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи 640 б.

Юткина Т.Ф. (2019) *Налоги и налогообложение*. — М.: ИНФРА-М.